

Aqli zaif bolalar bilan korreksion-pedagogik ish tizimidagi didaktik o'yinlar

Malika Olim-qizi Roziqova
Mushtariy Sherzod-qizi Abdurazzoqova
mushtariyabdurazzoqova242@gmail.com
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish tizimida didaktik o'yinlarning o'rnini va ahamiyati yoritilgan. Bundan tashqari didaktik o'yinlarning turlari, ularni to'g'ri tanlash va qo'llash tamoyillari, individual va guruhli mashg'ulotlardagi ahamiyati haqida malumotlar berilgan. Shuningdek, erta pedagogik o'rganish va individual yondashuvning muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: aqli zaif bolalar, didaktik o'yinlar, korreksion-pedagogik ish tizimi, didaktik o'yinlar, kognitiv rivojlanish, nutq rivoji, motor rivojlanish, ijtimoiy ko'nikmalar, psixologik barqarorlik, pedagogik o'rganish, maxsus ta'lim, individual yondashuv, guruhli mashg'ulotlar, erta diagnostika, maxsus yasli va maktab-internatlar

Didactic games in the system of correctional and pedagogical work with mentally retarded children

Malika Olim-kizi Rozikova
Mushtariy Sherzod-kizi Abdurazzoqova
mushtariyabdurazzoqova242@gmail.com
Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article discusses the role and importance of didactic games in the system of correctional and pedagogical work with mentally retarded children. In addition, information is provided about the types of didactic games, the principles of their correct selection and application, and their importance in individual and group classes. The importance of early pedagogical learning and an individual approach is also emphasized.

Keywords: mentally retarded children, didactic games, correctional and pedagogical work system, didactic games, cognitive development, speech development, motor development, social skills, psychological stability, pedagogical learning, special education, individual approach, group classes, early diagnostics, special kindergartens and boarding schools

Aqli zaif bolalar bilan ishlash korreksion-pedagogik tizimda asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Ularning rivojlanishi turli jihatdan cheklangan bo‘lib, nutq, tafakkur, xotira, diqqat va ijtimoiy ko‘nikmalarda sustlik kuzatiladi. Shu sababli, korreksion-pedagogik ish tizimida didaktik o‘yinlar muhim vosita sanaladi. Didaktik o‘yinlarning asosiy ahamiyati shundaki, bolaning psixologik, kognitiv, motor va ijtimoiy jihatidan rivojlantiradi hamda o‘quv faoliyatini qiziqarli va samarali bo‘lishini ta‘minlaydi¹. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartlari va ular asosida ishlab chiqilgan (aqli zaif bolalar uchun) maxsus ta‘lim talablariga mos bilim olishini ta‘minlash maqsadida hamda “Ta‘lim to‘g‘risidagi”, “Bolalar huquqlarining kafolati to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasida “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risidagi” qonunlarga asosanib, bugungi kunda aqli zaif bolalarni har tomonlama “Pedagogik o‘rganish” bizning asosiy maqsadimiz hisoblanadi. Bundan tashqari 1929-yilda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Ijroiya qo‘mitasi raisi Yo‘ldosh Oxunboboyev tashabbusi bilan nuqsonli bolalar uchun Toshkent shahrida “Aqliy va jismoniy rivojlanishida kamchiliklari bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash va ishga joylashtirish haqidagi” qaror qabul qilindi. Ushbu tashabbusdan so‘ng nuqsonli bolalarga e‘tibor birmuncha kuchaydi.

Didaktik o‘yinlar pedagogik faoliyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular bolaning e‘tibor, xotira, tafakkur, nutq, motor va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Aqli zaif bolalar - intellektual rivojlanishi yoshga mos normalaridan past bo‘lgan bolalardir. Ularning rivojlanishida nutq sustligi, diqqatning tarqoq va qisqa bo‘lishi, xotira va tafakkur qobiliyatining cheklanganligi, ijtimoiy ko‘nikmalarning yaxshi rivojlanmaganligi kuzatiladi. Didaktik o‘yinlar bolalarning psixologik rivojlanishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, stressni kamaytiradi va emotsional barqarorlikni oshiradi. Shu sababli, psixologik jihatdan to‘g‘ri tanlangan o‘yinlar bolaning shaxsiy rivojlanishiga katta yordam beradi.

Didaktik o‘yinlarga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin ;

1. Kognitiv o‘yinlar - mantiqiy fikrlash, umumiy bilish jarayonlarini rivojlantiradi.
2. Motor o‘yinlar - qo‘l motorikasini rivojlantiradi hamda koordinatsiyani oshiradi.

3. Nutqni rivojlantirish o‘yinlari - so‘z boyligini oshiradi, hikoya qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

4. Guruhli (frontal) o‘yinlar - guruhda ishlash, navbat bilan harakat qilish va jamoaviy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi². Didaktik o‘yinlarni tanlashda bolaning yoshi, rivojlanish darajasi, qiziqish va ehtiyojlari, mashg‘ulotning maqsadi va mashg‘ulot turi (guruh yoki individual) hisobga olinadi..Guruhli mashg‘ulotlar bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, birgalikda ishlash, qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.Shu bilan birga, individual yondashuv,

o'yinlarni bolaning ehtiyojlariga moslashtirish va vizual-taktik materiallardan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Didaktik o'yinlar aqli zaif bolalarda kognitiv vazifalarni mustaqil bajarish ko'nikmasini oshiradi, nutq va so'z boyligini rivojlantiradi, ko'nikmalarini yaxshilaydi³.

Nuqsonga ega bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlarni erta boshlash nuqsonni tezroq aniqlash hamda davolash imkonini beradi. Bundan tashqari aqliy qoloqlikni aniqlash hamda uni psixologik va pedagogik jihatdan diagnostika qilish ham muhim hisoblanadi. Aqli zaif bolalar oila muhitida yoki sog'liqni saqlash tizimiga qarashli bo'lgan maxsus yashilarda (Yasli - 0-3 yoshli bolalar tarbiyalanadigan va parvarish qilinadigan maktabgacha ta'lim muassasasi) maxsus dastur asosida tarbiyalanadi⁴.

Ayni paytda respublikamizda aqli zaif bolalar uchun maxsus maktablardan 90% ini maktab - internatlari tashkil etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, aqli zaif bolalar bilan korreksion-pedagogik ish tizimida didaktik o'yinlar:

Bolalarning kognitiv, nutqiy, motor va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Bolalarning o'quv faoliyatiga qiziqishini oshiradi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Psixologik barqarorlikni ta'minlaydi, stressni kamaytiradi va motivatsiyani kuchaytiradi. Bundan tashqari didaktik o'yinlar bolalarning kognitiv jarayonlari - idrok, diqqat, xotira va tafakkurning bosqichma-bosqich rivojlanishini ta'minlash bilan birga, nutqiy faollikni kuchaytiradi, mayda va yirik motorikaning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtiradi⁵.

Aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish tizimida didaktik o'yinlardan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar:

1. Didaktik o'yinlarni interaktiv texnologiyalar bilan yanada boyitish.
2. Individual va frontal mashg'ulotlarga integratsiya qilish
3. O'yinlarni muntazam monitoring qilish va natijalarni baholash
4. Vizual va taktil materiallardan keng foydalanish⁶.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayupova, N. Z. (2018). Maxsus pedagogika: pedagogik nazariya va amaliyot. Toshkent. Barkamol nashriyoti.
2. Abidova, N. Z. (2016). Tiflopsixologiya va maxsus pedagogika. Toshkent. Barkamol nashriyoti.
3. Mo'minova, L. (2015). Aqli zaif bolalar tarbiyasi va rivoji. Toshkent. O'qituvchi nashriyoti.
4. Volkova, G. V. (2017). Korreksion pedagogika metodikasi. Toshkent.sh. Fan nashriyoti.
5. Amirsaidova, R. (2016). Maxsus pedagogika va didaktik o'yinlar. Toshkent. sh.

6. Po‘latova, N. Z. (2017). Maxsus psixologiya. T.. Fan va texnologiya nashriyoti.
7. Roziqova, M. O. Q., & Hikmatillayeva, N. A. Q. (2025). Idrok jarayonining individual farqlari va ularni o‘rganishning psixologik asoslari. Science and Education, 6(12), 606-610.
8. Roziqova, M. O. Q., & Xalimjonova, G. (2026, January). THE IMPACT OF A PSYCHOLOGICALLY HEALTHY LIFESTYLE ON AN INDIVIDUAL’S EMOTIONAL STABILITY. In Claritas Conference Platform (No. 1, pp. 23-25).
9. Roziqova, M., & Tursunov, B. (2026, January). STRESS MANAGEMENT STRATEGIES AMONG STUDENTS: AN ANALYSIS BASED ON GENDER DIFFERENCES. In International Conference Platform (No. 1, pp. 8-10).
10. Ismoilova, D., & Roziqova, M. O. Q. (2026). Emotsiyalar va affektlarning inson xulq-atvoridagi roli. Science and Education, 7(1), 970-973.
11. Rustamova, G., & Rakhmatullayeva, Z. (2026, January). THE INTERRELATIONSHIP BETWEEN APPEARANCE AND SELF-ATTITUDE DURING ADOLESCENCE. In Claritas Conference Platform (No. 1, pp. 26-29).
12. Rustamova, G. Z. X. Q., & Dilshoda, T. U. (2025). Keksalarni yosh chegaralari psixologik muammo sifatida. Science and Education, 6(5), 356-361.
13. Kayumov, B. Z. O. (2026). PROFESSIONAL DEVELOPMENT AND SUCCESS OF TEACHING STAFF IN HIGHER EDUCATION. European Review of Contemporary Arts and Humanities, 2(2), 52-55.
14. Baxtiyor, Q. (2024). THE CORRELATION RELATIONSHIP OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY IN ADOLESCENTS WITH ACHIEVEMENT MOTIVATION. In Next Scientists Conferences (Vol. 1, No. 01, pp. 24-27).
15. Turg‘unboyeva, A., Badritdinova, M., G‘aniyeva, N., & Qayumov, B. (2021, May). Description of the methods of diagnosing the cognitive style of pupils in the educational process. In E-Conference Globe (pp. 306-308).
16. Jo‘rayev, S. M. (2026). THE CONCEPT OF VOCATIONAL MOTIVATION IN ADOLESCENT PSYCHOLOGY. European Review of Contemporary Arts and Humanities, 2(2), 47-51.
17. Jo‘rayev, S. (2025). IIV akademik litseyi o‘spirin o‘quvchilarida kasbiy motivatsiyaning o‘ziga xos jihatlari. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI, 3(12).